INGLIZ VA O'ZBEK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI

Islomova Munira Chori qizi
TerDPI, Tillar fakulteti Xorijiy til va adabiyoti 1-bosqich talabasi
Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi
TerDPI, Amaliy ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning struktur-semantik xususiyatlari qiyosiy aspektda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida frazeologizmlarning grammatik tuzilishi, semantik yaxlitligi hamda lingvomadaniy asoslari yetakchi tilshunos olimlar nazariyalari asosida yoritildi. Xususan, V.V. Vinogradov, A.V. Kunin, N. Komilov, M. Baker kabi olimlarning qarashlari asosida frazeologizmlarning tasnifi, funksiyasi va tarjima muammolari ilmiy asosda tahlil qilindi. Natijalar frazeologik birliklarning universalligi bilan birga milliy-madaniy xususiyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *frazeologiya, struktur-semantik tahlil, lingvomadaniyat, idioma, konnotatsiya, tarjima nazariyasi.*

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ структурно-семантических особенностей фразеологических единиц в английском и узбекском языках. В процессе исследования освещаются грамматическая структура, семантическая целостность, а также лингвокультурологические основы фразеологизмов на основе теорий ведущих лингвистов. В частности, на основе взглядов В.В. Виноградов, А.В. Кунин, Н. Комилов и Мона Бейкер научно анализируются классификация,

функции и проблемы перевода фразеологических единиц. Результаты показывают, что фразеологические единицы, наряду с универсальностью, обладают также национально-культурными особенностями.

Ключевые слова: *фразеология, структурно-семантический анализ, лингвокультура, идиома, коннотация, теория перевода.*

Abstract. This article presents a comparative analysis of the structural and semantic features of phraseological units in the English and Uzbek languages. The study examines the grammatical structure, semantic integrity, and linguocultural foundations of phraseological units based on the theories of prominent linguists. In particular, the classification, functions, and translation issues of phraseological units are analyzed scientifically based on the views of V.V. Vinogradov, A.V. Kunin, N. Komilov, and Mona Baker. The results indicate that phraseological units, along with their universality, also possess national and cultural characteristics.

Keywords: *phraseology, structural-semantic analysis, linguoculturology, idiom, connotation, translation theory.*

Kirish

Har bir til o'zida xalqning dunyoqarashi, urf-odati, hayot tarzi va ruhiyatini mujassam etadi. Shu jihatdan, frazeologik birliklar tilning eng boy va ifodali qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ular orqali xalq tafakkuri, hayotiy tajribasi va madaniy an'analari til vositasida ifodalanadi.

Frazeologik birliklar til tizimining eng murakkab va o'ziga xos qatlamlaridan biri bo'lib, ular nafaqat semantik yaxlitlik, balki milliy tafakkur va madaniy xotirani ham aks ettiradi. Tilshunoslikda frazeologiya mustaqil ilmiy

yo'nalish sifatida XX asrda shakllangan bo'lib, bu borada rus va g'arb tilshunoslari muhim ilmiy asoslar yaratgan.

Jumladan, rus tilshunosi V.V. Vinogradov frazeologik birliklarni semantik yaxlitligi va motivatsiya darajasiga ko'ra tasniflab, ularni frazeologik chatishmalar, birliklar va birikmalarga ajratadi. Uning fikricha, frazeologizmlar "tilning tayyor semantik bloklari" bo'lib, ular nutqda qayta yaratilmaydi, balki reproduktiv tarzda qo'llanadi.

Shuningdek, ingliz tilshunosi A.V. Kunin frazeologiyani kengroq talqin qilib, uni "barqaror leksik birliklar tizimi" sifatida izohlaydi hamda ularning struktur va semantik barqarorligini asosiy mezon sifatida belgilaydi.

Frazeologik birlik tushunchasi tilshunoslikda turli ilmiy maktablar va olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan bo'lib, bu holat mazkur hodisaning murakkab va ko'p qirrali tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, o'zbek tilshunosi N. Komilov frazeologizmlarni milliy tafakkur mahsuli sifatida baholab, ularning semantik mazmunida xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari va madaniy qadriyatlari mujassam ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, frazeologik birliklar oddiy til birliklari emas, balki milliy ong va madaniy xotiraning lingvistik ifodasidir.

Ingliz tilshunosligida muhim o'rin tutgan A.V. Kunin esa frazeologik birliklarni struktur jihatdan turg'un, semantik jihatdan yaxlit bo'lgan til birliklari sifatida izohlaydi. U frazeologizmlarning asosiy belgisi sifatida ularning barqarorligi, reproduktivligi hamda komponentlari o'rtasidagi semantik bog'liqlikni ko'rsatadi. Kunin nazariyasiga ko'ra, frazeologik birliklar nutqda tayyor holda qo'llanadigan va ko'chma ma'no asosida shakllangan birliklar tizimini tashkil etadi

Rus tilshunosi V.V. Vinogradov esa frazeologik birliklarni semantik motivatsiya darajasiga ko'ra tasniflashni taklif etadi. Unga ko'ra, frazeologizmlar frazeologik chatishmalar, frazeologik birliklar va frazeologik birikmalarga ajratiladi. Mazkur tasnif frazeologizmlarning ichki semantik tuzilishini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar faqat struktur yoki semantik jihatdan emas, balki lingvokulturologik paradigma doirasida ham o'rganilmoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, frazeologizmlar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ya'ni, har bir frazeologik birlik o'zida nafaqat ma'no, balki milliy mentalitet, qadriyatlar tizimi va madaniy kodlarni ham mujassam etadi. Shu bois, frazeologik birliklarni o'rganish tilshunoslik bilan bir qatorda madaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika va tarjimashunoslik kabi sohalar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik birlik – bu ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'nosi tarkibidagi so'zlarning lug'aviy ma'nosidan farq qiluvchi barqaror birlikdir [1, 15–48]. Ular tilda tayyor shaklda ishlatiladi va ma'nosi yaxlit bo'ladi [2, 22–60].

Masalan, ingliz tilidagi "*to kick the bucket*" iborasi so'zma-so'z "*chelakni tepmoq*" degan ma'noni bildiradi, ammo aslida "*vafot etmoq*" degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilida esa "*jon taslim qilmoq*" iborasi shunga o'xshash ma'noda ishlatiladi. Bu misollar frazeologizmlar ma'nosining so'zlardan emas, balki umumiy ifodadan kelib chiqishini ko'rsatadi.

Frazeologik birliklar har bir xalqning madaniyati, urf-odatlari va tafakkur tarzini aks ettiradi. Shuning uchun ularni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Frazeologik birliklar turlicha ko'rinishga ega:

Idioma (ingliz tilida "idioms" – ma'nosi so'zlardan anglashilmaydigan birlik (masalan, "*to kick the bucket*").

Frazeologik birikma – ma'nosi qisman tushunarli bo'lgan birikma ("*make a decision*" – "*qaror qabul qilmoq*").

Maqola yoki ibora – mustaqil fikr bildiruvchi gap ("*Actions speak louder than words*" – "*Ish so'zdan ustun*").

Frazeologizmlarning o'ziga xosligi shundaki, ular xalqning hayot tajribasidan, tarixiy voqealardan yoki kundalik nutqdan kelib chiqqan bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi "*Achilles' heel*" iborasi qadimgi yunon afsonasidan olingan bo'lsa, o'zbek tilidagi "*ilonning yog'ini yalagan*" iborasi xalq og'zaki ijodidan kirib kelgan.

Frazeologik birliklarning semantik jihatdan o'rganilishi ularning ma'nosini, mazmuniy tuzilishini va ramziy ifoda vositalarini tahlil qilishni talab etadi. Har bir frazeologizm tilda ma'lum bir vazifani bajaradi, ya'ni u nafaqat so'z birikmasi sifatida, balki xalqning madaniy tafakkuri, dunyoqarashi va emotsional holatini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Semantik tahlil shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlar xalqning madaniyati, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiradi [3, 10–35]. Shu bilan birga, ularning barqarorligi va tayyor shaklda ishlatilishi frazeologizmning eng muhim xususiyatlaridan biridir [4, 50–85].

Frazeologik birliklar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. To'liq ko'chma ma'noli frazeologizmlar – ularning umumiy ma'nosi tarkibidagi so'zlarning bevosita ma'nosidan butunlay farq qiladi.

Masalan: Ingliz tilida: "*to kick the bucket*" – "*vafot etmoq*";

O'zbek tilida: "*ko'z yumdi*" – "*vafot etdi*".

2. Qisman ko‘chma ma’noli frazeologizmlar – bunda biror so‘z o‘z ma’nosini saqlab qoladi, qolganlari esa ko‘chma ma’noda qo‘llanadi.

Masalan: Ingliz tilida: “*to lose one’s head*” – “*o‘zini yo‘qotmoq, sarosimaga tushmoq*”;

O‘zbek tilida: “*boshini yo‘qotdi*” – “*vahimaga tushdi, nima qilishni bilmay qoldi*”.

3. Milliy-madaniy frazeologizmlar – bu turdagi birikmalar xalqning madaniyatiga, urf-odatlariga yoki tarixiga bog‘liq bo‘ladi.

Masalan: Ingliz tilida: “*a white elephant*” – “*keraksiz, ortiqcha narsa*”;

O‘zbek tilida: “*tog‘dek yuk*” – “*og‘ir mas’uliyat yoki tashvish*”.

Semantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir frazeologizm faqat grammatik birlik emas, balki xalqning hayotiy falsafasi, ijtimoiy qadriyatlari va ruhiy kechinmalarining lingvistik ifodasidir. Ingliz va o‘zbek tillarida o‘xshash ma’nodagi iboralar ko‘p uchrasa-da, ularning ifoda shakli, ramziy obrazlari va konnotatsiyalari (ya’ni yashirin ma’nolari) ko‘pincha farq qiladi. Bu esa til orqali milliy mentalitet va madaniy tafakkurni o‘rganish imkonini beradi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayoni tilshunoslikda eng murakkab masalalardan biridir. Chunki bunday birliklarning ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning bevosita tarjimasi orqali to‘liq ifodalanmaydi. Har bir frazeologizm o‘z xalqining madaniyati, tarixiy tajribasi va milliy dunyoqarashiga chuqur singib ketgan bo‘ladi. Shu sababli, frazeologizmlarni tarjima qilishda nafaqat so‘zma-so‘z ma’noni, balki ularning semantik, pragmatik va emotsional mazmunini ham inobatga olish zarur.

Tarjima jarayonida frazeologik birliklarni madaniy kontekstni hisobga olib ekvivalent tarzda ifodalash juda muhimdir [5, 120–145]. Shu fikr boshqa tadqiqotlar bilan ham tasdiqlanadi [6, 60–90].

Frazeologizmlarni tarjima qilishda odatda quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. Ekvivalent tarjima (to'liq moslik bilan tarjima qilish):

Bunday holatda, manba va maqsad tilida ma'nosi ham, uslubi ham bir xil frazeologik birlik mavjud bo'ladi.

Inglizcha: "*to kill two birds with one stone*" – O'zbekcha: "*bir o'q bilan ikki quyonni urmoq*".

Bu ikki ibora ham bir vaqtning o'zida ikki ishni bajarish ma'nosini beradi.

2. Qisman ekvivalent tarjima (yaqin ma'nodagi ifoda):

Bu usulda ma'nosi o'xshash, ammo obraz yoki so'z tarkibi boshqacha bo'ladi.

Inglizcha: "*to let the cat out of the bag*" – "*sirni oshkor qilmoq*";

O'zbekcha: "*gullab qo'ymoq*" yoki "*og'zida gap turmaydi*".

Bu iboralar bir-biriga mazmunan o'xshash bo'lsa-da, obrazli ifoda turlicha.

3. Tavsifiy tarjima (ma'nosini so'zlar orqali tushuntirish):

Ba'zi frazeologizmlarni tarjima qilishda ekvivalent topilmagani uchun, ularning mazmuni kengroq so'zlar yordamida ifodalanadi.

Inglizcha: "*a storm in a teacup*" – "*kichik narsani katta muammo qilmoq*" tarzida tushuntiriladi.

O'zbek tilida bu ma'noga yaqin "*mayda gapni bo'rttirmoq*" iborasi ishlatiladi.

4. So'zma-so'z tarjima (literal translation):

Bu usul frazeologizmlar uchun har doim mos kelavermaydi, chunki u asl ma'noni buzib qo'yishi mumkin. Masalan, "to break the ice" iborasini so'zma-so'z "*muqarrar muzlarni sindirmoq*" deb tarjima qilish noto'g'ri, chunki bu ibora aslida "*suhbatni boshlamoq*" yoki "*sovuq muhitni yumshatmoq*" ma'nosini bildiradi.

Ingliz va o‘zbek frazeologizmlari ko‘pincha mazmunan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning obrazli ifodalari va strukturasi turlicha bo‘ladi [7, 75–102]. Tarjima jarayonida asosiy e’tibor madaniy kontekst va ifoda uslubiga qaratilishi kerak. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar turli madaniy manbalarga ega bo‘lgani sababli, ularni moslashtirish jarayonida tarjimon ijodkorlik bilan yondashishi lozim. Shuningdek, frazeologik birliklarning tarjimasi orqali xalqning mentaliteti, qadriyatlari va o‘ziga xos dunyoqarashi ham aks etadi.

Shu tarzda, frazeologizmlarni to‘g‘ri tarjima qilish — bu nafaqat tilni bilish, balki xalq ruhiyatini, tarixini va madaniyatini his etish san’atidir.

Xulosa

Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning struktur-semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir xalq o‘zining milliy dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va hayotiy tajribasini til orqali ifodalaydi. Frazeologizmlar so‘z boyligining eng ifodali qatlamini tashkil etadi va ularning har biri o‘ziga xos obraz, ramz hamda ma’naviy mazmunni o‘zida mujassam etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ingliz va o‘zbek frazeologizmlari orasida mazmunan o‘xshash birliklar ko‘p uchrasa-da, ularning struktur tuzilishi va semantik obrazlari farqlanadi. Bu farqlar tilning milliy ruhini, xalq tafakkurining o‘ziga xosligini va madaniyatlararo tafovutni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Комилов Н. Фразеология асослари. – Тошкент: Фан нашриёти, 2018. – Б. 15–48.
2. Акбарова Г. Тил ва маданият: фразеологик бирликлар таҳлили. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – Б. 22–60.

3. Kunin A. V. English Phraseology: A Theoretical Outline. – Moscow: Higher School Publishing House, 1996. – P. 10–35.
4. Виноградов В. В. Очерки по фразеологии русского языка. – Москва: Наука, 1986. – С. 50–85.
5. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2011. – P. 120–145.
6. Cowie A. P. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – P. 60–90.
7. Жўраев С. Қиёсий тилшунослик асослари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2019. – Б. 75–102.
8. Jo'rayeva, N. S. (2024). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI "SMILE/TABASSUM" TUSHUNCHALARINING PREDIKATIV VERBALLASHUV TAHLILI. *"TARJIMASHUNOSLIK: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR II" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN*, *1*(1), 830–832. Retrieved from https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/374